

BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ibrohimova Naima Isroil qizi,

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
+998907910825

Ilmiy maslahatchi: Jakbarova Mahliyo Ibraximjonovna,
Boshlang'ich ta'lim innovatsiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
+998937078884

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining vazifalari, turli motivlar orqali ularni faollashtirish va iqtidorini yuzaga chiqargan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zining shaxsiga uyg'un faoliyat turiga qiziqtirish va shu bilan birgalikda ularni katta hayotga tayyorlashda ona tili va o'qish savodxonligi darslarlarining ahamiyati so'z boradi.

Kalit so'zlar: ona tili, o'qish savodxonligi, pedagogika, boshlang'ich ta'lim, vosita, kasb-hunar, tamoyil, tarbiya, faoliyat, iqtidor.

ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются задачи уроков родного языка и чтения в подготовке учащихся начальной школы к профессии, важность этих уроков в активизации их деятельности по различным мотивам и раскрытии их талантов, а также в привлечении учащихся начальной школы к занятиям, соответствующим их личности, и одновременно в подготовке к взрослой жизни.

Ключевые слова: родной язык, чтение, педагогика, начальное образование, средства, профессия, принцип, воспитание, деятельность, талант.

TECHNOLOGIES FOR PROFESSIONAL ORIENTATION OF STUDENTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY SCHOOL

Abstract: This article discusses the tasks of native language and reading literacy classes in guiding primary school students to a profession, the importance of native language and reading literacy classes in activating them through various motives and revealing their talents, and in attracting primary school students to activities that are compatible with their personality, and at the same time preparing them for adulthood.

Keywords: native language, reading literacy, pedagogy, primary education, means, profession, principle, upbringing, activity, talent.

KIRISH

Yurtimizda boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarga berilayotgan ta'lim mazmunini kasbiy kompetentlik va motivatsion omillar vositasida takomillashtirish hamda yangilanib borayotgan jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimiga noan'anaviy va zamonaviy yondashish zamon talabi bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kunda davlatimizda kasbiy ta'limni rivojlantirishda turli xil chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shu jumladan, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning farmonlariga binoan yurtimizda kasbiy ta'lim tashkilotlarining o'quv jarayonini tashkil etish, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari uchun o'qitish metodikalari, ta'lim dasturidagi yangiliklar va ilg'or pedagogik texnologiyalar bo'yicha trening mashg'ulotlarini tashkil etish, o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun kasbiy ta'lim tashkilotlari va mos yo'nalishdagi korxona va tashkilotlar o'rtasida amaliyot o'tkazish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birgalikda, maktablarda, xususan, boshlang'ich ta'lim sohasida o'quvchilarga nafaqat ta'lim, balki, to'g'ri tarbiya ham berishda, ularning psixologik kelib chiqishini va iqtidorini, qobiliyatini hisobga olgan holda ularni kasbga yo'naltirish uchun pedagoglarga ham o'z bilimlarini yangilashda yetarlicha sharoitlar yaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshlang'ich ta'lim sohasida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining roli haqida so'z borganda shularni aytib o'tish joizki, bu fanda ko'proq matnlar, hikoyalarva ertaklar bilan ishlanadi. Bu matn va hikoyalar mazmunini anglash va o'quvchilarga buni hayotga bog'lagan holda tushuntirish mahoratli o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan biridir. Matnni o'rganish davomida o'quvchilar bilan savol-javoblar o'tkazish, qiziqarli metodlar va texnologiyalardan foydalangan holda ularning iqtidor doirasidan kelib chiqib kasb-hunarga muhabbat ham uyg'otish lozim. Masalan, 1-sinf ona tili darsligida shunday matn berilgan:

Yosh ixtirochi

Agar men robot yaratsam, uning nomi ... bo'ladi. Robotning ko'rinishi ... bo'ladi. U ... yordam beradi.

Ushbu qisqa lekin qiziqarli matnning xususiyati shundaki, ushbu matn orqali o'quvchi quyidagilarni o'rganadi:

Matnda berilgan nuqtalarning o'rniga so'z qo'llash orqali izlanuvchanlik qobiliyati shakllanadi;

Ushbu matn orqali ixtirochilikka va zamon talabi bo'lgan rivojlangan texnologiyalar haqida fanlarga qiziqishi ortadi;

Qiziqarli matn orqali kelajakda o'z kasbini tanlashda motivatsiya oladi.

G'avvoslar

G'avvoslar – suvga sho'ng'uvchi kishilar. Ular suv o'tkazmaydigan maxsus kiyimlar kiyadi. Suv ostida turli ishlarni bajaradi. Dengiz tubidan marvaridni ham izlab topadi [2;94].

Ushbu matn ham ona tili darsligidan olingan bo'lib "Nutq. Matn. Gap." mavzusida keltirilgan. Matn bilan ishlash orqali o'quvchilar nafaqat suv osti mo'jizalari haqida ma'lumot oladilar, balki, g'avvoslik kasbi haqida, uning naqadar ajoyib va qiziqarli kasbligi haqida ham tushunchaga ega bo'ladilar. Bunda o'qituvchining dars o'tish borasidagi mahorati va tajribasi ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchi ushbu matnni ona tili va atrofimizdagi olam fanlarini integratsiyalagan holda olib borsa, o'quvchilarda matn va g'avvoslik kasbi doirasida keng tushuncha paydo bo'ladi hamda fanlarga qiziqishi ortadi.

Mamlakatimizda ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha keyingi yillarda bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Sh.Yusupova va N.Yuldasheva kabilar o'z tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov, M.Saidov va N.Alavuddinovalar esa ona tili o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan.

O'qituvchining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarga motivatsiya bera olishdir. Motivatsiya so'zi lotincha "movere" so'zidan olingan bo'lib, "harakatlanish", "undash" degan ma'nolarni anglatadi. Motivatsiya insonning psixologik характери, xulq-atvori, faolligi va muayyan maqsadga yo'nalganligini anglatadi. Motivatsiya psixologik tushuncha sifatida murakkab hodisadir: u insonning hayot yo'lini belgilashda muhim omildir. O'quvchilarga har qanday motivatsiyani ham berib bo'lmaydi. Avval, uning

ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatkichlarini o'rganib, yosh psixologiyasidan kelib chiqqan holda to'g'ri yo'naltirish darkor. Darsdan tashqarida uyushtirilgan tadbirlar, to'g'arak mashg'ulotlari, qo'shimcha musobaqa va olimpiadalar ham o'quvchilarga kasb-hunarga yo'naltirishning samarali usullaridan hisoblanadi.

Milliy dasturda ta'kidlanganidek, 1-4-sinflarda ta'limning yangicha tizimini mazmunini shakllantirish uchun o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish va ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash zarur.

Insonni ma'lum bir faoliyatga undovchi kuch bu ehtiyojdir. Sinf jamoasida yoki fan doirasida turli xil ehtiyojlar yuzaga kelganda o'quvchilarning yashirin qobiliyatlari yuzaga chiqa boshlaydi. Mulohazali o'qituvchi esa shu paytni ko'zdan aslo qochirmaydi. Uning iqtidori qay jabhada ilg'orligini anglagan holda kerakli oqimga, ya'ni kasb-hunarga yo'naltiradi.

Sharqning buyuk mutafakkirlari tomonidan inson hayoti va kamolotida kasb-hunarning ahamiyati borasida muhim mulohazalar bayon qilingan. Jumladan, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Al-Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning pedagogik qarashlarida ta'lim berish usullari va kasb-hunar egallashning ijtimoiy ahamiyati, psixologik xususiyatlari va talablari borasida asosli fikrlar ilgari surilgan.

Al-Xorazmiy "Bilim berishda ko'rgazmali vositalar, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, bilimlarni sinash usullaridan keng foydalanish lozim. Tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berish muhim", deb ta'kidlaydi. [3;8]. Darhaqiqat, o'quvchilarga nazariy bilimlar bilan birga ko'rgazmali va tajriba metodlari, amaliy mashqlarni qo'llash, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish usullaridan foydalanish muhim va kasbiy motivatsiyani shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, har bir o'quvchi o'ziga xos individ. O'quvchilarga qaysi fan doirasida bo'lmasin, to'g'ri motivatsiya berish, har birining individual qobiliyatini ko'ra bilish va uyg'un kasb-hunarga yo'naltirish mahoratli

o'qituvchidan talab qilinadigan vazifadir. Shuningdek, ona tili fani doirasida ham o'quvchilarga o'z ustilarida ishlash uchun kerakli va to'g'ri metodikalardan, qiziqarli va rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ona tili shunday keng qamrovli fanki, bu vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu fan doirasida imkoniyatlar yetarli. Buning uchun, avvalo, o'qituvchi avval o'zini tarbiyalashi, o'zining ustida ishlashi, fan doirasida kerakli bilim va malakalarni egallashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-6787995>
2. U .B. Aydarova, D. SH. Yuldasheva Ona tili 1-sinf 1-qism Qayta ishangan 2-nashr Toshkent-2024
3. Teshabayeva Zamira Sobirovna Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish texnologiyalari Monografiya "MALIK PRINT CO" Toshkent-2022
4. S. Matchonov, H. Bakiyeva, X. G'ulomova, SH. Yo'ldosheva, G. Xolboyeva Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. "ISHONCHLI HAMKOR" Toshkent-2021
5. Djakbarova M.I. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi "Zamonaviy ta'lim va tarbiya tendensiyalarida pedagogika va psixologiya fanlarining strategiyasi va yondashuvlari" Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya to'plami 2025-yil 21-22-aprel
6. Jakbarova M.I. Nutq so'zlashga o'rgatish metodikasi. Monografiya. Toshkent-2024